

**BOBURNOMA -TARIXIY ADABIY VA MANBASHUNOSLIK MANBAI  
HAQIDA TUSHUNCHA**

**Ahmadbekova Ominabonu Oybek qizi**

*Qo'qon Unversiteti Andijon filiali FTO 'ing 2 kurs talabasi*

*axmadbekovaominabonu@ gmail.com*

(+998947000896)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari tarixiy, adabiy va manbashunoslik manbai sifatida tahlil qilinadi. Asarda XV–XVI asrlarda Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston hududlarida kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar, shuningdek, Bobur hayotidagi muhim voqealar yoritilgan. Maqolada asarning memuar janridagi o'rni, badiiy xususiyatlari va tarixshunoslikdagi ahamiyati batafsil ochib beriladi. Maqolada “Boburnoma”ning tarixiy manba sifatidagi roli, undagi voqealarni xolis va tanqidiy ruhda bayon etish, Temuriylar sulolasi va u davr siyosiy kurashlari, harbiy yurishlar va davlat boshqaruvi haqidagi qimmatli ma'lumotlar tahlil qilinadi. Shuningdek, asarning adabiy jihatlari, ya'ni badiiy tasvir vositalari, tabiat va shahar manzaralari, inson xarakterini jonli ifodalash, shoirlik va falsafiy mulohazalar orqali boburiy memuar janridagi o'rni batafsil yoritiladi. “Boburnoma”ning manbashunoslik ahamiyati ham alohida ko'rib chiqiladi. Asar geografik, etnografik, iqtisodiy va madaniy jihatlarni o'zida jamlagan noyob manba sifatida qadrlanadi. Bobur turli xalqlarning urf-odatlari, kiyim-kechaklari, ovqatlanish madaniyati va ijtimoiy hayotini batafsil bayon qilganligi sababli asar tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik tadqiqotlari uchun bebaho manbadir.*

**Kalit so'zlar:** *Boburnoma, Zahiriddin Muhammad Bobur, tarixiy manba, tarixiy voqealar, davlat boshqaruvi, Temuriylar sulolasi, sarkarda, harbiy yurishlar, memuar janri, adabiy meros, she'riy tasvirlar, badiiy tasvir, madaniyat, etnografiya, iqtisodiy hayot, geografik ma'lumotlar, manbashunoslik, tarixshunoslik, madaniyatshunoslik, o'rta asrlar tarixi*

**Ключевые слова ;** *Бабурнаме, Захириддин Мухаммад Бабур, исторический источник, исторические события, государственное управление, династия Тимуридов, военачальник, военные походы, жанр мемуаров, литературное наследие, поэтические образы, художественные описания, культура, этнография, экономическая жизнь, географические сведения, источниковедение, историческая наука, культурология, история средневековья*

**Keywords:** *Baburnama, Zahiriddin Muhammad Babur, historical source, historical events, governance, Timurid dynasty, commander, military campaigns, memoir genre, literary heritage, poetic imagery, artistic description, culture,*

*ethnography, economic life, geographic information, source studies, historiography, cultural studies, medieval history*

**Kirish:** Boburnoma —jahon adabiyoti va manbashunosligidagi muhim va noyob yodgorlik; o‘zbek adabiyotida dastlabki nasriy memuar va tarixiy-ilmiy asar. Muallif Zahiriddin Muhammad Bobur Eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan (taxminan 1518/1519—1530). „Boburiya“, „Voqeoti Bobur“, „Voqeanoma“, „Tuzuki Boburiy“, „Tabaqoti Boburiy“, „Tavorixi Boburiy“ kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa „Vaqoye“ va „Tarix“ degan nomlarni ishlatgan. Boburnomada 1494—1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistonda sodir bo‘lgan tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan bo‘lib, ular muallif hayoti va siyosiy faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

„Boburnoma“ o‘zida bayon qilingan voqealar jarayoniga ko‘ra 3 qismga: Boburning Movarounnahr (1494—1504), Afg‘oniston (1504—1524) va Hindiston (1524—1530)dagi hukmdorlik davriga bo‘linadi. Birinchi qismda Boburning otasi — temuriylarning Farg‘ona ulusi hokimi Umarshayx Mirzo (1461—1494) xususida hamda Boburning Farg‘ona taxtiga o‘tirishi (1494-yil iyun), ammo Temuriylar davlatida avj olgan taxt uchun kurash oqibatida o‘z ulusidan mahrum bo‘lishi (15-asr 90- yillari), Samarqand uchun Shayboniyxonga qarshi olib borgan jangu jadallari (1497—1501)ning behuda ketishi va nihoyat, toju taxtdan butunlay ajrab, Hisor tog‘lari orqali taxminan 250 navkar bilan Afg‘onistonga yuz tutishi (1504) haqidagi voqealar batafsil zikr qilingan. Ikkinchi qismda Boburning Kobulni zabt etgani, so‘ng u yerda mustaqil davlat tuzgani (1508), Eron shohi Ismoil Safaviyning harbiy yordami bilan Samarqandni yana ishg‘ol qilgani (1511), lekin shayboniylar (Ubaydulla Sulton, Muhammad Temur Sulton va Jonibek Sulton)dan yengilib (1512), Kobulga qaytgani, keyin esa Hindistonni zabt etishga hozirlik ko‘ra boshlagani xususidagi voqealar bayon etilgan. Uchinchi qism esa Boburning Dehli sultoni Ibrohim Lo‘diyini mag‘lub etib (qarang Panipat janglari), Shim. Hindistonni bosib olgani (1526) va Boburiylar davlatini barpo qilgani haqidagi ma’lumotlardan iborat. „Boburnoma“da keltirilgan barcha ma’lumotlar, xususan Farg‘ona, Toshkent, Samarqand, Hisor, Chag‘oniyon va Shim. Afg‘onistonning 15-asr 80—90- yillari va 16-asr Ichoragidagi siyosiy ahvoliga doir xabarlar o‘zining batafsilligi bilan shu xususdagi boshqa adabiyotlardan tubdan farq qiladi. Shuningdek, asar muallifning muayyan tarixiy voqea haqida hamda o‘zaro dushmanlik qilgan temuriylar — Umarshayx, Sulton Ahmad, Sulton Mahmud, Boysung‘ur Mirzo, Sulton Husayn va boshqalarning xulq-atvori, tabiati xususida bildirgan fikr-mulohazalari bilan ham ahamiyatlidir. Asarda, ijtimoiy-tabiiy fanlar, tarix, falsafa, fiqh, din ta’limoti, tilshunoslik, jug‘rofiya, tabiatshunoslik, ma’danshunoslik, dehqonchilik, bog‘dorchilik va boshqalarga oid aniq va hanuzgacha o‘z tarixiy va ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan ma’lumotlar, ilmiy asoslangan xulosalar keltirilgan. Asarda bevosita

Boburning o‘zi lashkarboshi sifatida qatnashgan bir necha katta-kichik jang manzaralari mahorat bilan berilgan. O‘sha davrdagi qo‘shin tuzilishi, urush olib borish, jang usullari, qamal holatlari, qurol-yarog‘ turlari, qurg‘onbuzar qurilmalar bilan bir qatorda asarda ko‘plab harbiy ma‘muriy istilohlar (tuman, ulus, ko‘kaltosh, eshikog‘a, axtachi, tarxon, shig‘ovul, sharbatchi (sharbatdor), mubashshir, tug‘chi, miroxur, rikobdor, dorug‘a, murchil, manjaniq, o‘ron va boshqalar) ham uchraydi. Shuningdek, „Boburnoma“da temuriylar qo‘shinining tuzilishi, harbiy san‘ati va boshqa haqida ham noyob ma‘lumotlar bor. Bundan tashqari, Movarounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindiston o‘tmishi va zamonaviy holati, xalqlari, qabilalari, ularning tili, madaniyati, kasb-hunari, urf-odatlar, rasm-rusumlari, an‘anaviy tadbir-marosimlari, shuningdek o‘sha davr jamiyatiga xos ijtimoiy tabaqalarga tegishli ma‘lumotlar bayon etiladi. Ayniqsa Farg‘ona, Andijon, Samarqand, Kobul, Hirot, Agra kabi yirik shahar, viloyatlarning jug‘rofiy-ma‘muriy tuzilishi, madaniy hayoti, tumanlari, aholisi, qishloq xo‘jaligi, daryo va suv havzalari, cho‘l-adirlari, tog‘, sahrolari, bog‘u -rog‘lari, tabiati, iqlimi, hayvonot va o‘simliklar dunyosi, tabiiy boyliklari haqida mufassal ma‘lumotlar beriladi. Xususan 15-16-asrlarda Turkiston viloyatida yashagan qora qo‘yluk (qo‘yunluk) qabilasining hamda Movarounnahrdagi turk-mo‘g‘ul qabilalarining urf-odatlar, harbiy mahoratlari haqidagi ma‘lumotlar, ayniqsa ilmiy jihatdan g‘oyatda qimmatli bo‘lib, ular o‘zbek, qozoq, qirg‘iy, turkiy zabon xalqlar etnik tarixini o‘rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. „Boburnoma “ da Farg‘ona, Samarqand shaharlari va shu nomdagi viloyatlar, Ohangaron vodiysi, O‘ratepa va uning atrofi, Mascho, Hisor, Chag‘oniyon, Badaxshon, Kobul viloyati va boshqa joylar geografik jihatdan g‘oyatda qiziqarli tavsif qilingan bo‘lib, muallif o‘zi yurgan yo‘llar, o‘zi bo‘lgan shahar va qishloqlarni g‘oyat darajada aniq tasvirlagan Boburnoma” XV–XVI asrlar Markaziy Osiyo va Hindiston tarixini o‘rganishda muhim birlamchi manba hisoblanadi. Asarda Temuriylar davridagi siyosiy nizolar, taxt uchun bo‘lgan kurashlar, harbiy yurishlar va davlat boshqaruvi batafsil yoritilgan. Bobur Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Toshkent, Buxoro, Kobul va Hindiston hududlarida sodir bo‘lgan voqealarni bevosita ishtirokchi sifatida yozgan. Shu bois, uning yozganlari tarixiy haqiqatga yaqin va ishonchlidir. Muallif o‘zining mag‘lubiyatlari, xatolari va muvaffaqiyatlarini yashirmay bayon etadi, bu esa “Boburnoma”ni tarixiy jihatdan qimmatli qiladi. Asarda hukmdorlar, amirlar, sarkardalar va boshqa shaxslar haqida berilgan ma‘lumotlar o‘sha davr siyosiy va ijtimoiy muhitini chuqur tushunishga yordam beradi. Shu bilan birga, iqtisodiy, diplomatik va harbiy jihatlar ham batafsil yoritilgan. v Boburnoma”ning adabiy jihatlar ham alohida e‘tiborga loyiq. Asar sodda va ravon tilda yozilgan bo‘lib, unda badiiy tafakkur, tabiat va shahar manzaralarini jonli tasvirlash, inson xarakterini ifodalash orqali voqealar nafaqat tarixiy, balki estetik jihatdan ham o‘quvchiga yetkaziladi. Asarda uchraydigan she‘riy parchalar, hikmatli so‘zlar va falsafiy mulohazalar Boburning shoir sifatidagi iste‘dodini ko‘rsatadi. Shu bois, “Boburnoma”

nafaqat tarixiy manba, balki boy adabiy meros hamdir. Bundan tashqari, asar manbashunoslik nuqtai nazaridan ham qimmatli hisoblanadi. Bobur oʻrta asr Markaziy Osiyo, Afgʻoniston va Hindiston madaniyati, urf-odatlarini, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti haqida qimmatli maʼlumotlarni jamlagan. Turli xalqlarning turmush tarzi, savdo-sotiq jarayonlari asarda batafsil yoritilgan. Shu sababli “Boburnoma” nafaqat tarixiy haqiqat, balki etnografik, iqtisodiy va madaniy manba sifatida ham bebaho ahamiyatga ega, shuningdek, asarning bugungi ilmiy ahamiyati, tarixshunoslik va madaniyatshunoslikdagi roli, yosh avlodni tarixiy ong va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdagi oʻrni ham alohida taʼkidlanadi. Shu nuqtai nazardan, maqola “Boburnoma”ni tarixiy, adabiy va manbashunoslik jihatdan oʻrganishga bagʻishlangan boʻlib, asarning barcha jihatlarini bir butun sifatida yoritadi. „Boburnoma“ 15-asr oʻzbek badiiy nasrining yorqin namunasi sifatida sof badiiy lavhalar, jonli tasvirlar, anʼanaviy lirik chekinishlarga boy. Nasriy matn ichida keltirilgan xalq maqol, matallari, iboralari, ibratli oʻgitlar, sheʼriy parchalar uning badiiyligini yanada oshiradi, oʻziga xos joziba bagʻishlaydi. „Boburnoma“ 16-asrdan boshlab hozirgacha dunyoning koʻp tillari — ingliz, golland, fransuz, fors, nemis, italyan, rus, hind, urdu va boshqa tillariga bir necha marta tarjima qilindi, sharh-izohlar bilan nashr etildi. Angliya, Amerika, Fransiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston, Afgʻoniston, Turkiya, Yaponiya kabi oʻnlab mamlakat olimlarining ilmiy tadqiqotlarida „Boburnoma“ning insoniyat yaratgan oʻlmas obidalar qatorida alohida oʻrinda turishi taʼkidlanadi. „Boburnoma“ning jahonga mashhur boʻlishida, asosan ingliz sharqshunoslarining xizmati katta boʻldi. Yevropadagina emas, balki jahonda birinchi toʻliq nashrini (ingliz tilida) 1826-yilda J. Leyden va V. Erskin amalga oshirdi. F. Talbot esa mazkur nashr asosida 2-marta (1878, 1909) uning qisqartirilgan nashrlarini chop ettirdi. 1921-yilda ingliz sharqshunosi A. Beverij „Boburnoma“ni mustaqil suratda asl nusxadan qayta tarjima qildi. Birgina Angliyaning oʻzida „Boburnoma“ tarjimalari toʻqqiz marta nashr etildi.

#### **Xulosa :**

Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari tarixiy, adabiy va manbashunoslik jihatdan bebaho manbadir. Asarda XV–XVI asr Markaziy Osiyo, Afgʻoniston va Hindiston hududlarida sodir boʻlgan siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar muallifning shaxsiy nigohi orqali yoritilgan. Bobur voqealarni xolis va tanqidiy ruhda bayon etganligi sababli asar tarixshunoslikda birlamchi manba sifatida qadrlil hisoblanadi. Tarixiy jihatdan “Boburnoma” Temuriylar davridagi siyosiy nizolar, hukmdorlar oʻrtasidagi kurashlar, harbiy yurishlar, diplomatik munosabatlar va davlat boshqaruvi haqida toʻliq maʼlumot beradi. Shu bilan birga, asarda iqtisodiy hayot, bozor munosabatlari, dehqonchilik va savdo-sotiq jarayonlariga oid qimmatli faktlar keltirilgan. Bu jihatlar “Boburnoma”ni nafaqat tarixiy, balki iqtisodiy va siyosiy manba sifatida ham qadrlil qiladi. Adabiy jihatdan “Boburnoma” memuar janrining mukammal namunasi boʻlib, unda badiiy tasvir vositalari keng qoʻllanilgan. Bobur

tabiat, shahar va odam xarakterlarini jonli va tasviriy ifodalaydi. Asardagi she'riy parchalar va falsafiy mulohazalar muallifning shoirlik va tafakkur salohiyatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, asar o'quvchida estetik didni rivojlantiradi va voqealarni tasviriy tarzda qabul qilish imkonini beradi. Manbashunoslik nuqtai nazaridan "Boburnoma" geografik, etnografik, madaniy va ijtimoiy jihatlarni o'zida jamlagan noyob manbadir. Bobur turli xalqlarning urf-odatlarini, kiyim-kechaklari, ovqatlanish madaniyati va turmush tarzini batafsil tasvirlagan. Shu sababli asar tarix, etnografiya, madaniyatshunoslik va antropologiya tadqiqotlari uchun ham katta ahamiyatga ega. Shuningdek, "Boburnoma"ning jahon miqyosidagi ahamiyati ham katta. Asar ko'plab xorijiy tillarga tarjimaqilingan, xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilingan va Sharqtarixshunosligining noyob namunasi sifatida tan olingan. Bu esa Boburning shaxsiy xotiralari va kuzatuvlarini global tarixiy manba sifatida qadrlashga imkon yaratadi. "Boburnoma" tarixiy haqiqat, badiiy mahorat va ilmiy qimmatni o'zida mujassam etgan nodir asardir. U nafaqat o'zbek va Markaziy Osiyo tarixini o'rganishda, balki jahon madaniy merosining bir qismi sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, asar yosh avlodni tarixiy ong, milliy qadriyat va madaniy merosga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Qisqa qilib aytganda bizning buyuk allomamiz shox va shoirmiz mutaffakir olimimiz Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz biz uchun katta boylik qilib o'z asarlarni me'ros qilib qoldirib ketkan. Biz yoshlar bu asarlarni avaylab asrashimiz zarur.

#### Foydalanilgan adabiyotlar :

- Abdurashid Abdug'afurov. O'ZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- Azimjonova S, Gosudarstvo Babura v Kabule i v Indii, M., 1977;
- O'zbek adabiyoti tarixi, 3j., T., 1978;
- Bobur Z.M. *Boburnoma*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1966.
- Qayumov A. *Bobur va boburiylar davri adabiyoti*. – Toshkent: Sharq, 2005.
- Valixojayev B. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. – Toshkent: Fan, 2010.
- Hasanov S. *O'rta asrlar tarixiy manbalari*. – Toshkent: Fan, 2008.